



SPORT TASHKILOTLARI FAOLIYATINI INNOVATSION BOSHQARISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING TUTGAN O'RNI.

Madhiya Yo'ldosheva Bekmurod qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi o'qituvchisi

Kalit so'zlar: sport, jismoniy tarbiya, bosqich, boshqarish, muammo, jarayon, innovatsiya, turizm, harbiy, texnologiya, uslub, usuliyat, madaniyat, korxona, tashkilot

Innovatsiyalar va innovatsion boshqaruvga nisbatan qaratilgan e'tibor hozirgi jamiyat hayotining o'zi tomonidan talab qilinadi, innovatsion jarayonlarni yangi mahsulotlar va yangi texnikada ro'yobga chiqishi uning sotsial – iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'ladi. Innovatsion jarayon innovatsion o'zgarishlarni tayyorlash va amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Bu jarayonda amalga oshirilgan o'zgarish natijasida innovatsiya paydo bo'ladi. Jahon iqtisodiy adabiyotlarida “innovatsiya” salohiyatli ilmiy – texnik taraqqiyot (ITT)ni haqiqiy, yangi mahsulotlar va texnologiyalarda ro'yobga chiqishi sifatida talqin qilinadi. Bizning mamlakatimizda yangilik kiritishning muammolari ko'p yillar davomida ilmiy – texnik taraqqiyotning iqtisodiy tadqiqotlari doirasida ishlab chiqilgan. “Innovatsiya” atamasidan O'zbekistonning o'tish iqtisodiyotida ham mustaqil va ham bir qator o'xshash tushunchalar: “Innovatsion faoliyat”, “innovatsion jarayon”, “innovatsion qaror” va h.k.larni belgilash uchun foydalanilgan. Iqtisodchi olimlar, ayniqsa xorijiy (N. Monchev, I. Perlaki, V.D. Xartman, E. Mensfeld, R. Foster, B. Tviss, Y. SHumpeter, E. Rodjers va boshqalar) bu tushunchani o'zlarining tadqiqotlari ob'ekti va predmetiga ko'ra har xil talqin qiladilar, ammo innovatsiyalarning bu har xil ta'riflarining tahlili shunday xulosaga olib keladiki, o'zgarishlar innovatsiyalarning o'ziga xos mazmunini tashkil qiladi, o'zgarishlarning vazifasi esa innovatsion



faoliyatning asosiy vazifasi bo'ladi. Ba'zida innovatsiyaga jarayonli tizim sifatida qaraladi, shuning bilan yangilik kiritishni vaqtda rivojlanishi va yaqqol aks ettirilgan bosqichlilik tan olinadi. Innovatsion boshqaruv g'oyatda murakkabdir. Ularning innovatsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifasi – innovatsion jarayonni ilgari surish, ehtimol bo'lgan to'siqlarni bashorat qilish va ularni bartaraf qilish yo'llarini belgilashdir. Shu sababli yangilik kiritishlarning bozorli tanlovi mavjud, unda innovatsion menejerlar ishtirok etadilar. Innovatsion menejerlar ijodiy jamoalarni tashkil qila turib, yangiliklarni qidirib topish va tarqatish, ilmiy tadqiqotlar va ishlamalarga buyurtmalar portfelini shakllantirish bilan shug'ullangan holda, har xil tashkiliy tuzilmalarda harakat qilishlari mumkin. Ular ilmiy jamoalarni boshqaradilar, ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiradilar. Bularni barchasi innovatsion boshqaruvchilar malakasi oldiga yuqori talablarni qo'yadi: ular ilmiy texnik va iqtisodiy – psixologik salohiyatga, ham an'anaviy menejer va ham tadqiqotchi olim sifatiga ega bo'lishlari, yangilik kiritishlarning samaradorligini baholash va innovatsiyalarni boshqarishga qodir malakali iqtisodchi bo'lishlari kerak.

Innovatsion menejment – bu innovatsion jarayonlar, innovatsion faoliyat, bu faoliyat bilan band bo'lgan tashkiliy tuzilmalar va ularning xodimlarini boshqarish tamoyillari, usullari va shakllarning majmuasidir. Menejmentning har qanday boshqa sohalari kabi, uning uchun ham quyidagilar xos: maqsadni qo'yish va strategiyani tanlash, davrning to'rtta bosqichi mavjud.

Bular: 1) rejalashtirish; 2) shartlarni belgilash va tashkili qilish; 3) ijro etish; 4) rahbarlik.

Davrning har bir bosqichida belgilangan vazifalar hal qilinadi. Birinchi bosqich – rejalashtirish bosqichida – strategiyani amalga oshirish rejasi tuziladi. Ikkinchisida – shartlar va tashkil qilish belgilanadi, ya'ni innovatsion davrning har xil pallalarini amalga oshirish uchun resurslarni belgilash, xodimlar oldiga



vazifalarni qo'yish, ishni tashkil qilish ketadi. Ijro etish bosqichida tekshirishlar va ishlab chiqishlar bajariladi, reja amalga oshiriladi. Rahbarlik bosqichi nazorat va tahlilni harakatlarga tuzatish, kiritish va tajriba to'plashni ko'zda tutadi. Innovatsion jarayon (IJ) davriy xarakterga ega. IJ ni ifodalovchi faoliyat inson mehnatini taqsimlanishi natijasida ajralib chiqqan, bir birlaridan farqlanuvchi alohida vazifaviy, tashkiliy birliklarga bo'linadi. Nazariy tadqiqot bevosita aniq amaliy vazifalarni yechish bilan bog'lanmagan, ammo xuddi uning o'zi innovatsion jarayonning poydevoridir. Shuning bilan birga nazariy tadqiqotlarning zarurligi amaliyotning ehtiyojlari va predmet haqidagi oldingi bilimlarning sintezi bilan asoslanishi mumkin. Innovatsion menejmentning maqsadlari, xarakteri va mazmuni innovatsion menejmentning xususiyatlari va uning an'anaviy turlardan katta farq qilinishini belgilab beradi. Innovatsion rivojlanish maqsadlarni belgilash va kompaniya rivojlanishi yo'nalish strategik ko'rishga o'zining xususiyatlarini kiritadi, boshqaruv apparati oldida turgan vazifalarni modifikatsiyalaydi. Rejalashtirish – bu innovatsion menejmentning maxsus vazifasi, u tashqi va ichki muhit omillarini tahlil qilish, tashkilot faoliyatini bashoratlash, strategiyalarini amalga oshirish va qo'yilgan maqsadga erishishni rejalashtirish bo'yicha tadbirlar tizimini boshqarishdan tashkil topadi. Rejalashtirish jarayoni ishlarni bajarish muddatlari (qisqa muddatli, o'rtacha muddatli, uzoq muddatli), maqsadlar (strategik va operativ rejalashtirish), ob'ektlar bo'yicha bo'linadi.

Yangiliklarni ishlab chiqish va tadbiq etishga yuqori harajatlar, agar boshqaruv qarorlari bir vaqtda tashkiliy tuzilmalarni yangilanishi, texnologik jadallikni oshishi va mehnat unumdorligini ko'payishiga qaratilgan bo'lsa, hatto boshlang'ich bosqichda fondni qaytarilishi va ishlab chiqarishning rentabelligini pasaytirmaydi. Ilmiy ishlab chiqarish va marketing bo'linmalariga muvofiq o'zaro aloqasi, maqsadli iqtisoslashtirishni modellashtirish bilan shug'ullanadi.



Innovatsion menejmentga ilmiy yondashishlar “Boshqaruv” tushunchasi har xil ob’ektlarga ta’sir ko’rsatish sifatida talqin qilinadi, u tartibga solish, takomillashtirish va rivojlantirish maqsadiga ega. Boshqaruvning ilmiy asoslari bo’yicha dastlabki darsliklarda ishlab chiqarishni boshqarish odamlar jamoalariga ularning ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish uchun maqsadga qaratilgan ta’sir ko’rsatish sifatida belgilangan. Boshqaruv tushunchasining inglizcha ma’nosi “menejment” so’zi bilan aks ettiriladi. Menejment mazmuniy nuqtai nazardan – bu boshqarish, rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish usuli, mehnat sarmoyalar va boshqalar kabi resurslardan kattaroq samaradorlik bilan foydalanish. Shunday nuqtai nazar asosida innovatsion menejment – bu innovatsion faoliyat, uning resurslari, yangiliklarini ishlab chiqish va tadbiq etishda sotsial – iqtisodiy rivojlanishning eng muhim omili sifatida innovatsiyalarning kattaroq samaradorligiga erishish maqsadida ishtirok etayotgan odamlarni boshqarishning maqsadga qaratilgan tizimidir. Yuqorida keltirilgan innovatsion menejment xaqidagi umumiy tushunchalarga asoslanib, nodavlat notijorat tashkilotlar va aynan nodavlat notijorat sport tashkilotlarining faoliyatlarini tashkil qilish, tartibga solish, uning maqsad va vazifalari belgilab berishga asos bo’ladi.

Darhaqiqat, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ulkan ishlarni izchil davom ettirish, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, shahar va qishloqlarimizda davr talabiga javob beradigan sport majmualari hamda stadionlar bunyod etish, ularni zamonaviy sport anjomlari, yuqori malakali sport ustalari va murabbiylar bilan ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Bu albatta, sog’lom turmush tarzini shakllantirish, aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish, ommaviy sportni, shuningdek, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlar ko’lamini yanada kengaytiradi.



Raqamli bozor iqtisodiyotining hozirgi bosqichida, innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion faoliyat, ishlab chiqarish va inson hayotiy faoliyatining boshqa sohalari ehtiyojlarini qondirishning muhim uslublaridan biri hisoblangan holda, u foydalaniladigan mahsulotlarning sifat o'zgarishlari, faoliyat vositalari va uslublarini yangilash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ammo sifat o'zgarishlari faqatgina fundamental bilimlar asosida o'zgartirish mumkin bo'lib, ular texnik bosqichdan ishlab chiqarish sohasiga o'tgan holda, unda progressiv o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda innovatsiyaviy faoliyat mahsulotlarini sotish hisobiga milliy daromadning 20% gacha o'sishi ta'minlanishi mumkin.

Innovatsiyaviy boshqaruv - O'zbekiston iqtisodiyoti uchun nisbatan yangi tushuncha bo'lib, fan-texnika taraqqiyotini boshqarish jarayonlari va ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga joriy etishning asosiy jihatlarini qamrab oladi.

Innovatsiya-mavjud tizimlar rivojlanishini boshqarish jarayoni bo'lib, unda innovatsiyaviy mahsulot amaliy qo'llanilish bosqichigacha olib kelinadi va bozor muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Mamlakatlar raqobatdoshligini baholashning ko'rsatishicha, korxonalar rivojlanishining asosiy strategiyasi bo'lib, quyidagi ta-moyillarga asoslangan boshqaruv siyosatini amalga oshirish uchun xizmat qiladi:

- tabiiy va iqlim resurslardan oqilona foydalanish;
- jamg'arilgan boyliklardan o'z o'rnida foydalanish;
- investitsiyalarni faol jalb qilish;
- innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.



Shu munosabat bilan, innovatsiyaviy boshqaruvning tashkilot samarali rivojlanishi va raqobat ustunliklarini shakllantirish omili sifatidagi roli yanada oshadi.

Innovatsiyaviy boshqaruvning eng muhim amaliy vazifalaridan biri - innovatsiyaviy jarayonlarni boshqarishning samarali tizimini shakllantirishdir va u quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

- innovatsiyaviy boshqaruvning tegishli nazariy bazasini ishlab chiqish;
- innovatsiyaviy boshqaruv sohasida mavjud muammolarni echish uslublarini asoslash;
- innovatsiyaviy jarayonlar samaradorligini baholash uslubiyoti va ularga ta'sir ko'rsatish vositalarini ishlab chiqish.

Sportda ro'y berayotgan innovatsiyaviy jarayonlarning samaradorligi, innovatsiyaviy strategiyani shakllantirishda qo'llaniladigan usul va uslublarga, innovatsiyaviy mahsulot kategoriyasiga, ishlab chiqilayotgan innovatsiyalar turlariga, ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarining ishlab chiqarishda qo'llanilishiga bog'liq bo'ladi. Ular orasida eng muhim elementlar bo'lib quyidagilar sanaladi:

- innovatsiyaviy xarakterdagi echimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali strategiyalari;
- muayyan tashkiliy tuzilmada bunday strategiyani amalga oshirish jarayonini boshqaruv mexanizmi.

Tadbirkorlik, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va marketing strategiyalari bilan bir qatorda yuqorida qayd etilgan innovatsiyaviy strategiya, tashkilot umumiy iqtisodiy strategiyasining muhim bo'g'ini sifatida qaraladi.

Boshqaruvning innovatsiyaviy nazariyasi va innovatsiyaviy strategiyasini uslubiy jihatlarini o'rganish davri o'tgan asr boshlariga to'g'ri keldi va ko'pgina yirik olimlar tomonidan amalga oshirildi.



Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot va bozor ehtiyojlari, mahsulot nomenklaturasi va sifatiga yangi talablarni shakllantirgan holda, talab va taklif kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga olib kelmoqda. Ishlab chiqaruvchilarning bunday o'zgarishlarga nisbatan loqaydligi, raqobatdoshlarning ilgarilab ketishidan dalolat beradi.

Sportda ushbu o'zgarishlarga kech moslashuvining salbiy iqtisodiy oqibatlari, tanazzul holatga va hattoki bankrotlikka olib kelishi mumkin. Ushbu munosabat bilan, ishlab chiqarish faoliyatining deyarli barcha sohalarida, innovatsiyalarga, istiqbolli rivojlanish vositasi sifatida, qiziqish oshadi. Korxonalarni boshqarish amaliyotida bunday strategiyaning shakllanishi, innovatsiyaviy jarayonlarni samarali boshqaruv tizimlarini yaratish zaruriyatini yana bir marta ta'kidlaydi.

Innovatsiyaviy boshqaruvning asosiy qoida va kategoriyalarini o'rganish uchun «innovatsiya» tushunchasining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini to'liq anglab etishimiz lozim. Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya (ingl. innovation) -potensial ilmiy-texnik taraqqiyotni (ITT) yangi mahsulot va texnologiyalar ko'rinishida real taraqqiyotga aylanishi, deb ta'riflanadi.

Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan, va ularga muvofiq innovatsiya deganda, bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovatsiyaviy faoliyat natijasi tushuniladi.

Ushbu muammo bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda innovatsiyaviy faoliyat sohasida yagona, umumiy tarzda qabul qilingan terminologiya mavjud emas. SHuning uchun ham adabiyotlarni qisqacha tahlilini keltirish va innovatsiyaviy faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Jismoniy tarbiya va sport menejmenti” darsligi. R.Nabiullin. Muvofiqlashtiruvchi Kengashdan o'tganligi to'g'risidaga guvohnoma raqami №303-014 va sanasi 2016 yil 21 aprel. I va II TO
2. Ekonomicheskie i sotsialnye aspekty razvitiya sportivnykh uslug: Monografiya /Pod.red. N.A. Voskolovich –M.: TEIS, 2012.-144 s.
3. I.B.Gurkov Strategicheskiy menedjment organizatsii. Uchebnoe posobie. – M.: TEIS, 2009.-250 s.
4. Shomurodov H.S. O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport faoliyatida tadbirkorlik. Monografiya.T.:”Tafakkur qanoti”, 2014.